



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№7(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 80 sahifa,
1-iyul, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Raqamli ta'lim muhitida o'quvchilarning milliy qadriyatlarga oid tasavvurlarini shakllantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari.....	10
<i>Davlatnazarova Ziyodabonu Muxtor qizi</i>	
Talabalarning xulqidagi devyatsiya darajasining yuqorilab ketishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar.....	16
<i>Ergashev Jo'rabek Xalilovich</i>	
Zo'ravonlikka uchragan bolalarni va ularning oilalarini zo'ravonlikdan himoya qilishning normativ-huquqiy va ijtimoiy-psixologik asoslari.....	19
<i>Ergasheva Gullolaxon Nosirjon qizi</i>	
Tinglab tushunish kompetensiyasining psixolingvistik va pedagogik asoslari.....	24
<i>Jonbo'tayeva Maxarramxon</i>	
O'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasining kasbiy kompetentlik tizimidagi o'rni.....	27
<i>Kutliyeva Feruzaxon Yusupovna</i>	
Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning ijtimoiylashuvini ta'minlashga xizmat qiluvchi zamonaviy kompleksni rivojlantirish.....	31
<i>Yunusov Mirsaid Xudayarovich, Istamova Sevdo Ashirqul qizi</i>	
Elektr tizimlari dinamik barqarorligini STEAM va Spiral (Regressus, Progressus) metodlari asosida o'qitish.....	35
<i>Safarov Xoliyor Sayyid Safar o'g'li</i>	
O'quvchilarda badiiy-estetik did va dizaynerlik ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi.....	39
<i>Norbutayeva Dilafruz Abdurasulovna</i>	
Talabalarda ijtimoiy yetuklikni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari va uning ta'lim sifatiga ta'siri.....	43
<i>Rahimova Nazokatxon Kasimjonovna</i>	
Model for Improving Students' Professional Competencies Based on Motivational Learning Approach.....	49
<i>Alibekova Mahzuna</i>	
Bo'lajak tarix o'qituvchilarining tarixiy tafakkurini shakllantirishning tuzilmasi va pedagogik komponentlari...	54
<i>Djumaniyazov Farxod Ulugbekovich</i>	
Yengil atletika bilan shug'ullanuvchi 14-16 yoshli sportchi qizlarda mashg'ulotlar davomiyligi.....	59
<i>Oralova Bibixol Husniddin qizi, G'ulomova Maftuna Sayfulla qizi</i>	
Boshlang'ich ta'limda ingliz tilini o'yinlar orqali o'rgatish.....	64
<i>Ruzmetova D. A.</i>	
Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisining axloqiy faoliyatini shakllantirishda pedagogik vositalarning imkoniyatlari.....	68
<i>Saydanova Dilafruz Sadirdinovna</i>	
Xorijiy tajribalar va zamonaviy yondashuvlar asosida tyutorlar kasbiy salohiyatini rivojlantirishda malaka oshirish tizimini takomillashtirish.....	75
<i>Ubaydullayev Zuxriddin Botirovich</i>	

BO'LAJAK TEXNOLOGIYA FANI O'QITUVCHISINING AXLOQIY FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISHDA PEDAGOGIK VOSITALARNING IMKONIYATLARI

Saydanova Dilafuz Sadirdinovna

Andijon davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining axloqiy faoliyatini shakllantirishda pedagogik vositalarning imkoniyatlari va ularning kasbiy-pedagogik faoliyatini mazmunli va sifatli tashkil etish, o'quvchilarning bilimni oshirishga yo'naltirilgan zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanishga o'rgatishning zaruriy jihatlari yoritilgan. Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining intellektual va ma'naviy salohiyati yuksak yangi avlod kadrlarini tayyorlash, ta'lim tashkilotlari bitiruvchilari zamonaviy kasb egalari bo'lishlari uchun ularda zarur ko'nikma va bilimlarni shakllantirishning zaruriy jihatlari ochib berilgan. Texnologiya fani o'qituvchilariga qo'yiladigan talablar pedagogik, psixologik va sotsiologik xarakterga egaligi bilan ahamiyatli hisoblanadi.

Kalit so'zlar: texnologiya fani o'qituvchisi, oliy ta'lim muassasasi, kompetensiya, axloqiy bilim, o'quvchi bilimi, zamonaviy texnologiya, intellekt, ma'naviy salohiyat.

Abstract: The article describes the possibilities of pedagogical tools in the formation of moral activity of future elementary school teachers and the necessary aspects of teaching them to effectively use modern technologies aimed at the meaningful and qualitative organization of their professional-pedagogical activity and improving the knowledge of students. The necessary aspects of training future primary school teachers with high intellectual and spiritual potential, and the formation of the necessary skills and knowledge in order for graduates of educational organizations to become modern professionals, have been revealed. Requirements for primary school teachers are significant due to their pedagogical, psychological and sociological nature.

Key words: primary school teacher, higher education institution, competence, moral knowledge, student knowledge, modern technology, intellect, spiritual potential.

Аннотация: В статье описаны возможности педагогического инструментария в формировании нравственной активности будущих учителей и необходимые аспекты обучения их эффективно использованию современных технологий, направленных на осмысленную и качественную организацию их профессионально-педагогической деятельности и совершенствование знаний учащихся. Раскрыты необходимые аспекты подготовки будущих учителей начальных классов с высоким интеллектуальным и духовным потенциалом, формирования необходимых навыков и знаний для того, чтобы выпускники образовательных организаций стали современными специалистами. Требования к учителям значительны по своей педагогической, психологической и социологической природе.

Ключевые слова: учитель, вуз, компетентность, нравственные знания, знания учащихся, современные технологии, интеллект, духовный потенциал.

KIRISH

“O'qituvchi o'z bilim malakasini oshirish usullarini puxta egallamog'i, mustaqil ishlashini o'rganmog'i lozim”, - degan edi A. Jomiy. Hozirgi vaqtda mamlakatimizning barcha sohalarida islohotlarni amalga oshirish, odamlarning dunyoqarashini o'zgartirish, yetuk va zamon talabiga javob beradigan mutaxassis kadrlarni tayyorlashni hayotning o'zi taqozo etmoqda.

Respublikamizda ta'lim tizimini mustahkamlash, uni zamon talablari bilan uyg'unlashtirishga katta ahamiyat berilmoqda. Bunda mutaxassis kadrlarni tayyorlash, ta'lim va tarbiya berish tizimi islohotlar talablari bilan chambarchas bog'langan bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, dunyo miqyosida shunday o'zgarishlar sodir bo'lmoqdaki, ushbu o'zgarishlar butun boshli xalqni, millatni, elatlarni, boringki, butun insoniyatning hayotini o'zgartirib yubormoqda. Ushbu o'zgarishlar



jarayonida axloqiy madaniyat va axloqiy munosabatlarning o'рни juda katta hisoblanadi. Jamiyatning taraqqiyoti insonlarning ongiga, aql-zakovati, axloq-odobiga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi.

Yaxshi tarbiya ko'rgan kishi eng avvalo el-yurtning, xalqning manfaatini o'ylaydi. Chunki har bir shaxsning baxt-saodati alohida, o'z holicha amalga oshmaydi. Atrofdagilar baxtli va farovon turmush kechirganlarida huzur-halovat hammaga tatiydi. Bu qoida qadim zamonlardan mavjud bo'lib, unga turli davrlarda turlicha amal qilib kelingan. Yoshlarning ta'lim-tarbiya olishlariga mas'ul bo'lgan barcha o'rinlarda xalq pedagogikasi xazinasidan foydalanish hayotiy ehtiyoj darajasiga ko'tarildi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Arabchada axloq xulqning ko'pligini anglatuvchi tushuncha bo'lib, kishilarning tarixan tarkib topgan xulq-atvori, ijtimoiy, shaxsiy hayotdagi o'zaro munosabatlari, shuningdek, jamiyatga bo'lgan munosabatlarni tartibga soluvchi barqaror, hayotiy tajribadan o'tgan me'yorlar, qoidalar majmuasidir. O'zbek xalqi azal-azaldan axloq deganda sog'lom imon-e'tiqodga ega, kuchli irodali, insof va adolatni o'zining hayotiy tamoyiliga aylantira olgan kishilarni tushungan. Axloq juda keng tushuncha. Uning o'ziga xos me'yorlari, qoidalari borki, ularga bee'tiborlik ushbu muhim ijtimoiy hodisaning ahamiyatini sayozlashtiradi. Aslida, axloq yordamida inson odobi boshqarib boriladi. Bu haqda zamonamizning buyuk va ulug' allomasi Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf shunday deydi: "Axloq - barcha maxluqotlar bilan xusni xulqda bo'lishdir. Axloqning asosini xilm, avf va sabr tashkil etadi. Xaloyiq senga qanday muomalada bo'lishlarini istasang, sen ham ularga shunday muomala qilishing axloqdir. Ozorni to'xtatib, ehsonni sochib; insofni ko'rsatib, jafoni yo'qotib; safoni topib, dunyoni ortga otib yubormoq axloqdir. Axloq - shahvat va g'azab qo'ziganda nafsni jilovlamoqdir".

Shaxsning to'liq shakllanishi uning axloqiylik darajasi bilan bog'liq. Axloqiylik esa har bir insonning o'zi va jamiyat oldidagi burch va mas'uliyatga nisbatan munosabatida aks etadi. Axloqiylikning ayrim ko'rinishlari insonning tashqi harakatlarida namoyon bo'lsa-da, ayni paytda, uning tom ma'nodagi axloqiy sifatleri individning ichki ruhiyatida makon topadi. Shuning uchun ham axloqiylik har birimizning ichki, botiniy hayotimizda yashaydi. Ana shunday sifatlar asosida biz tarbiya topamiz, o'zimizni isloh qilishga ehtiyoj sezamiz, pirovard natijada real hayot va axloqiy ideal o'rtasidagi chegaralarni qisqartiramiz. Axloq - kishilarning bir-birlariga, oilaga, jamiyatga bo'lgan munosabatlarida namoyon bo'ladigan xatti-harakatlari, xulq-atvorlari, odoblari majmui. Huquqdan farqli ravishda axloq talablarini bajarish-bajarmaslik ma'naviy ta'sir ko'rsatish shakllari (jamoatchilik tomonidan baho berish, qilingan ishni ma'qullash yoki qoralash) bilan belgilanadi. Axloqni etika fani o'rganadi.

Insoniyat taraqqiyotida axloq muhim o'rin tutadi. Sharqning buyuk mutafakkirlari insonni axloqiy kamol toptirish, uni har tomonlama rivojlantirish, ma'naviy qiyofasini shakllantirish jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri, deb qarashgan. Inson axloqiy, umuman ma'naviy va ma'rifiy jihatdan kamol topishi jarayonida turli tarixiy bosqichlardan - johillik, nodonlikdan ilmga, yovuzlikdan ezgulikka, vahshiylikdan insoniylikka o'tarkan, jamiyat ham shu tariqa rivojlanadi. Ikki muqobil ibtido - yovuzlik va ezgulik, jaholat va kamolatning o'zaro kurashi inson va jamiyat taraqqiyotini belgilagan, inson aql-zakovat sohibi sifatida o'zini anglashiga olib kelgan. Bu ikki muqobil kuch kurashi jamiyatdagi mavjud ijtimoiy munosabatlarda ifodalansa, insonga nisbatan uning ichki olamiga xos nafs bilan qalb, aql bilan aqlsizlik o'rtasidagi kurashda ifodalanadi. Axloq muayyan jamiyat va davrda o'zgarishlarga uchrashi, rivojlanishi, so'nishi mumkin. Har bir xalqning yoki millatning o'ziga xos axloqi bilan bir qatorda, umumbashariy axloq me'yorlari ham bor. Bunday axloq me'yorlari jamiyatning umumiy taraqqiyotiga samarali ta'sir ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining axloqiy faoliyatini shakllantirishda pedagogik vositalarning imkoniyatlarini aniqlash maqsadida tizimli, kompetensiyaviy va aksiologik yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqot davomida pedagogik hodisalarni o'rganishda nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, tizimlashtirish hamda ilmiy manbalarni kontent-tahlil qilish metodlari qo'llanildi. Shuningdek, bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining kasbiy va axloqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga oid milliy hamda xorijiy ilmiy adabiyotlar, me'yoriy-huquqiy hujjatlar va pedagogik tajribalar tahlil qilindi.

Tadqiqot jarayonida pedagogik vositalarning axloqiy tarbiyaga ta'siri ularning kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishdagi o'рни nuqtayi nazaridan baholandi. Olingan ilmiy-nazariy ma'lumotlar tahlil, sintez, induksiya va deduksiya usullari asosida umumlashtirilib, bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining axloqiy faoliyatini takomillashtirishga xizmat qiluvchi ilmiy xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatimizda ilg'or xorijiy tajribalar asosida uzluksiz ta'lim tizimi uchun pedagog kadrlar tayyorlashni nazarda tutuvchi oliy ta'lim tizimida zamonaviy yondashuvlarni ishlab chiqishni ta'minlashga qaratilgan islohotlar natijasida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashning zamonaviy ta'lim mazmunini modernizatsiyalash, tala-

balar ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga imkon beruvchi zarur shart-sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan ta'lim muhitini yaratish bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Chunki texnologiya fani o'qituvchisi maktabga ilk qadam qo'ygan o'quvchilarning savodini chiqarishda, ularni shaxs sifatida shakllantirishda muhim o'rin egalaydi. Pedagogik oliy ta'lim muassasalari boshlang'ich ta'lim yo'nalishi bitiruvchisining sifatleri quyidagicha guruhlandi:

1-guruh. Texnologiya fani o'quvchilarida DTSda belgilangan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirishga psixologik tayyorgarlik: jamiyat hayoti, yosh avlod tarbiyasida o'zining alohida rolini anglab yetish. Hozirgi zamon o'qituvchisi oldiga qo'yiladigan talablarni bilish, pedagogik faoliyatga qobiliyatning mavjudligi, o'qituvchilik kasbiga qiziqish, nerv sistemasining egiluvchanligi, chuqurligi va kuchliligi, undagi psixik jarayonlar (his qilish, idrok, diqqat, tasavvur, fikrlash, xotira, nutq, iroda)ning optimal holatda bo'lishi. Pedagogik kasbiga va o'quvchilar bilan muloqotga kirishishga bo'lgan ehtiyojini anglash.

2-guruh. Shaxs sifatleri: insonparvarlik, ma'lumotlilik, ma'naviy dunyosining mazmuni, madaniyati, eruditsiyasi (iqtidori), o'z bilimini doimo oshirib borish, pedagogik odobga egalik, talabchanlik va adolatlilik, axloqiy qiyofasi, o'z o'quvchilariga o'qish, ishlash va yashashda namuna bo'la olish, umuminsoniy va milliy qadriyatlarni hurmat qilish.

3-guruh. Kasbiy sifatlar:

- o'quvchi-yoshlarning o'ziga xos va yosh xususiyatlarini bilish, har bir o'quvchi shaxsini loyihalashtira olish;
- didaktik bilimlarning mavjudligi; o'z o'quv predmetini va unga doir so'nggi yangiliklarni bilish;
- o'quv reja, dastur, o'quv qo'llanmalar, darslik va qo'shimcha adabiyotlarni bilish;
- ta'lim vazifalari, funksiyalari va tashkil etish tamoyillarini bilish;
- o'quv dasturiga tuzatishlar kiritishni bilish, eskirgan ma'lumotlarni olib tashlash, o'rniga yangi, zamon talablariga mos, jonajon o'lka tarixi, madaniyati, xalq an'analari xususiyatlariga mos keladigan materiallarni qo'ya olish;
- o'quv ishlarini rejalashtirishni bilish (kalendar va dars rejaları);
- o'quvchilarning ta'limi, tarbiyasi va rivojlanishini ta'minlovchi, ta'limning eng ta'sirchan, noan'anaviy shakl va metodlarini tanlay olish hamda ijodiy qo'llay olish ko'nikmasi;
- xalqaro aloqalar imkoniyatlaridan foydalana bilish ko'nikmasi;
- ta'lim jarayonida, auditoriya va auditoriyadan tashqari ishlar jarayonida tarbiyaviy ishlarni tashkil eta bilishga doir bilim va ko'nikmalarning mavjudligi;
- o'quv-tarbiyaviy ishlarni samarali olib borishda erishgan yutuqlarida to'xtab qolmaslik, faol ijodiy izlanishda davom etish.

Bizning yondashuvimizga ko'ra, bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisi qiyofasida quyidagilar bo'rtib turishi kerak:

- bolaparvarlik;
- o'z kasbini sevishi;
- pedagogik faol bo'lish;
- o'zi ustida doimiy ishlashi.

Bunday yondashuv asosida oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu jihatdan xalqaro pedagogik tajribalarda qabul qilingan quyidagi konseptual yo'nalishlarga e'tibor berish lozim:

- a) bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilariga kasbiy, psixologik va pedagogik bilim berish;
- b) bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini pedagogik ko'nikma bilan qurollantirish;
- d) bola bilan ishlash psixologiyasini shakllantirish.

Ushbu yondashuv asosida bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini tayyorlash kutilgan samarani berishi shubhasizdir. Ayni paytda, har bir o'qituvchi faoliyati davomida o'zining kasbiy qiyofasini takomillashtirib borishini unutib bo'lmaydi. Bizning yondashuvimizga binoan bugungi kunda texnologiya fani o'qituvchilari zamonaviy yondashuvlardan xabardor bo'lishi kerak. Shu jihatdan bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilari qiyofasida peda-



gogik, psixologik va estetik malakalilik bo'rtib turishi kerak. Bu borada quyidagi pedagogik malakalarni egallash maqsadga muvofiq bo'ladi:

- bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilari pedagogik vazifani qo'ya olishi, o'quv-tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil eta olishi kerak;
- imkon qadar har bir o'quvchi bilan individual ishlash uslubiga ega bo'lishi shart;
- o'quv materiallari bilan ishlash ko'nikmasini egallash bo'lajak o'qituvchilar uchun muhim ahamiyatga ega.

Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisini kasbiy tayyorlash.

O'zbekistonda barpo etilayotgan Uchinchi Renessans jarayonida bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini kasbiy tayyorlash muhim vazifa hisoblanadi. Buning uchun quyidagilarga ahamiyat berish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini pedagogik qonuniyatlar va texnologiyalar bilan chuqur tanishtirish;
- bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini intellektual va ma'naviy-axloqiy salohiyati yuksak yangi avlod kadrlarini tayyorlash, ta'lim tashkilotlari bitiruvchilari zamonaviy kasb egalari bo'lishlari uchun ularda zarur ko'nikma va bilimlarni shakllantirish;
- dunyo miqyosidagi bugungi keskin raqobatga bardosh bera oladigan milliy ta'lim tizimini yo'lga qo'yish, darslik va o'quv qo'llanmalarini zamon talablari asosida takomillashtirish, ularning yangi avlodini yaratish, o'quv dasturlari va standartlarini optimallashtirish;
- ta'lim-tarbiya muassasalarining rahbar xodimlari, pedagog va murabbiylari, professor-o'qituvchilari hamda ilm-fan sohalari vakillarining jamiyatimizdagi o'rni va maqomini oshirish, ularning mashaqqatli mehnatini munosib qadrlash va faoliyat samaradorligiga qarab moddiy rag'batlantirish;
- pedagog xodimlarning kasbiy mahorati va faoliyat samaradorligini muntazam oshirib borish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, malaka oshirish tizimini "hayot davomida o'qish" tamoyili asosida takomillashtirib borish;
- ilmiy-tadqiqot va ta'lim xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha xususiy sektorning salmog'ini kengaytirish, hududlarda nodavlat ta'lim tashkilotlarini tashkil etish orqali raqobat muhitini shakllantirish, ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish;
- zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llagan holda ta'limni boshqarishni avtomatlashtirish va har tomonlama tahlil qilib borish tizimini yaratish, elektron resurslar va masofaviy ta'limni yanada rivojlantirish, ta'lim oluvchilar o'rtasida IT sohasidagi kasblarni ommalashtirish;
- ilm-fanni iqtisodiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylantirish, ilmiy tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish, iqtidorli yosh olimlarning innovatsion faoliyatini rag'batlantirish, mavjud ilmiy tashkilotlar salohiyatini yanada mustahkamlash va rivojlantirish.

Pedagogik olimlarning fikricha, texnologiya fani o'qituvchilari quyidagi funksional komponentlarni bilishi kerak:

- o'quv materiallarini tayyorlash va taqdim etish;
- o'quvchilarni bilim va tarbiya olishga qiziqitira olishi;
- o'quvchilar shaxsida uchraydigan kamchiliklarni bartaraf eta olishi;
- muntazam ravishda o'quvchilarni kuzatib borishi.

Mazkur yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy tayyorlash muhim ahamiyatga ega.

Tajribali pedagog olimlardan A. K. Markova yondashuviga ko'ra, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyati to'rt yo'nalishdan iborat:

- kasbiy psixologik va pedagogik bilimlarni egallash;
- kasbiy pedagogik malakani egallash;
- kasbiy psixologik ko'nikmalarni egallash;
- shaxsiy fazilatlar egasi bo'lish.

Bizningcha, ushbu tavsiyalar nazariy va amaliy jihatdan asoslarga ega. Shu sababli oliy pedagogik ta'lim jarayonini tashkil etishda bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy, psixologik va estetik jihatdan tayyorlashga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Hozirgi zamon rivojlanish jarayonida bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda model-lashtirish masalasiga ahamiyat berish dolzarb bo'lib turibdi. Unga ko'ra, oliy pedagogik ta'lim jarayoni o'ziga xos model ko'rinishiga ega bo'lishi kerak. Chunki modellashtirish to'rt jihatga ega bo'ladi:

- model bu o'quv materiallarini tizimli taqdim etish;
- model muammolarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etib borish;
- model ta'lim oluvchini hamisha obyekt sifatida bilish;
- model yangi ma'lumotlarni o'z vaqtida o'quv jarayoniga kiritib borish.

Shu jihatdan bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini kasbiy tayyorlash ishlarini modellashtirib olish maqsadga muvofiq bo'ladi. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (2020-yil 23-sentabr) 5-bobida o'qituvchilarning huquqiy maqomi belgilangan. Mazkur huquqiy maqomga ko'ra, bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilari faoliyatga quyidagi asoslarga binoan yo'naltirilishi kerak:

- chuqur kasbiy tayyorgarlik va ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega bo'lish;
- ta'lim oluvchilar huquqlariga rioya qilish;
- kafolatlangan ish sharoitidan foydalanish;
- o'quv dasturlarini tuzishda mualliflik dasturlarini ishlab chiqishni bilish;
- zamonaviy pedagogik shakllarni, o'qitish va tarbiya vositalarini erkin tanlash;
- innovatsiyalar ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish;
- sog'liqni saqlash muassasalarida bepul tibbiy ko'rikdan o'tish;
- ta'lim oluvchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda ishtirok etish.

Oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilari ana shu huquqlar asosida faoliyatga yo'naltirilishi kerak. Ayni paytda, mazkur Qonunda o'qituvchilarning quyidagi majburiyatlari ham belgilab qo'yilgan:

- ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'sini hurmat qilish;
- o'quv mashg'ulotlarini sifatli o'tkazishi;
- axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, o'qitish va tarbiyaning ilg'or hamda innovatsion shakllari va usullaridan foydalanishi;
- voyaga yetmagan ta'lim oluvchilar bilan ta'lim-tarbiya ishlarini ularning ota-onasi bilan birgalikda olib borishi;
- o'z malakasini muntazam ravishda oshirib borishi;
- tibbiy ko'rikdan o'z vaqtida o'tishi.

Mazkur majburiyatlar bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga yo'naltirishning asoslari bo'lib xizmat qiladi.

Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilari kasbiy faoliyatga quyidagi mexanizmlar asosida yo'naltirilishi kerak:

- a) mutaxassislik fanlarini o'qitish jarayonida;
- b) maxsus kurslar vositasida;
- d) mustaqil ta'lim vositasida;
- e) ustoz-shogird an'anasi vositasida.

Hadislarda: "Beshikdan to qabrgacha ilm izla", deyilishida juda katta hikmat bor. Ilm bobidagi izlanish esa insonni ma'naviy-axloqiy kamolot sari yetaklaydi. Ta'lim-tarbiya jarayonida texnologiya fani o'qituvchisi maktab o'quvchilarining kundalik hayoti tashkilotchisi sifatida namoyon bo'ladi. Qiziqish uyg'otish, o'quvchilarni o'zi ortidan ergashtirish faqatgina irodasi mustahkam odamning qo'lidan keladi, bunda shaxsiy faollik hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Sinf, bolalar jamoasi kabi murakkab organizmga pedagogik rahbarlik tarbiyachini topqir, zehnli, qat'iyatli va har qanday vaziyatni mustaqil hal qilishga tayyor turishga majbur qiladi.



Pedagog - bu bolalarni o'z ortidan ergashishga undovchi, taqlid uchun o'rnakdir. Zamonaviy o'qituvchiga qo'yiladigan talablar qatorida ma'naviyat yana yetakchi o'ringa qaytmoqda. O'zining shaxsiy xulqi, hayotga munosabati bilan ustoz ma'naviy hayotda o'quvchilarga o'rnak ko'rsatishi, ularda insoniy fazilatlar, haqiqat va ezgulikning oliy maqsadlarini tarbiyalashi lozim. Bugungi kunda ko'plab odamlar o'z farzandlarining o'qituvchisi e'tiqodli inson bo'lishini talab qilmoqda, zero, ular o'z dilbandlarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalashni unga ishonib topshirishini anglab yetishgan. O'qituvchining xarakteridagi ruhiy ziyraklik - unga o'quvchilar ahvolini, kayfiyatini his qilish, yordamga ko'proq muhtoj bo'lib turganlariga o'z vaqtida yordam qo'lini cho'zishga imkon beruvchi o'ziga xos barometrdir. O'qituvchining tabiiy holati - bu o'z tarbiyalanuvchilarining buguni va kelajagi uchun kasbiy bezovtalik va shaxsiy mas'uliyatdir.

Bundan tashqari, o'qituvchining kasb odobi - o'quvchilar bilan muloqotda me'yorga rioya qilish haqida ham alohida aytib o'tish joiz. Kasb odobi - bu tarbiyachining aql, hissiyot va umumiy madaniyatni maqsadli ifodalash qobiliyatidir. Uning negizida o'quvchining shaxsiyatiga hurmat yotadi. Bu o'qituvchini odobsizlikdan ogohlantiradi, muayyan vaziyatlarda eng yaxshi ta'sir vositasini tanlashga undaydi. O'qituvchilik kasbida shaxsiy fazilatlar kasbiy fazilatlardan ajralmas sanaladi. Ularning orasida: o'quv fanini, fanni o'qitish metodikasini o'zlashtirish, psixologik tayyorgarlik, umumiy bilim, keng madaniy dunyoqarash, pedagogik mahorat, pedagogik mehnat texnologiyalarini egallash, tashkilotchilik malaka va ko'nikmalari, pedagogik xushmuomalalik, pedagogik texnika, muloqot texnologiyalarini o'zlashtirish, notiqlik san'ati va boshqalar bor.

O'z mehnatiga mehr qo'yish - pedagog bo'lishdagi eng zaruriy fazilatdir. Uning tarkibiy qismlari sifatida vijdoniylik va fidokorlik, tarbiya natijalariga erishishdan quvonch, o'ziga va o'z malakasiga doimiy ravishda ortib boruvchi talabchanlikni aytish mumkin. Zamonaviy o'qituvchi shaxsiyatini ko'p jihatdan uning bilimi, madaniyati qay darajada yuksakligi belgilab beradi. Zamonaviy dunyoda erkin harakat qilishni istagan o'qituvchi juda ko'p narsani bilishi kerak. O'qituvchi taqlid uchun o'ziga xos o'rnak namunasi, o'zini qanday tutish lozimligining o'ziga xos etalonidir. Pedagog - bu hamisha zahmatkash va mehnatkashdir.

Shuning uchun biz uning muhim kasbiy fazilatlari sifatida mehnatsevarlik, ishchanlik, intizomlilik, mas'uliyatlilik, maqsad qo'yish va unga erishish yo'llarini tanlay olish, uyushqoqlik, qat'iyatlilik, o'z kasbiy darajasini tizimli va rejali asosda muntazam oshirib borish, o'z mehnati sifatini muntazam takomillashtirishga intilish va boshqa qobiliyatlarni tan olishimiz kerak.

O'qituvchilik kasbini sevish pedagogik axloqning zarur talablaridan biri hisoblanadi. O'z kasbini sevgan kishigina butun kuch-g'ayratini, qalb qo'ri va dil haroratini bu ishga bag'ishlaydi va o'z faoliyatida yaxshi natijalarga erishadi. Shuningdek, bolalarni sevish, ularga mehr-muhabbatli bo'lish o'qituvchilik kasbi, o'qituvchi axloqiy qiyofasida juda muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi halollik, rostgo'ylik, axloqiy poklik, odamiylik, kamtarlik kabi fazilatlarga ega bo'lishi pedagogik odobining muhim talab-qoidasidir. Muallim deyarli har kuni o'quvchilar bilan uchrashadi, savol-javob qiladi, ularning yaxshi xulqi, ezgu ishlarini ma'qullaydi, bilimni baholaydi, nojo'ya xatti-harakati uchun tanbeh beradi. Albatta, o'qituvchining fikri, mulohazalarida nisbiylik, subyektivlik alomatlarini mavjud.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining axloqiy faoliyatini shakllantirishda pedagogik vositalarning imkoniyatlari milliy tarbiyalash jarayoniga yangicha yondashuv metodologik samaradorlikni taqozo etadi. Biz esa milliy ruhda tarbiya berishning bugungi davr talabiga xos bo'lgan g'oyalarini bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining ongiga singdirib borishimiz zarur. Eng muhimi, yurtimiz kelajagini mustahkamlash uchun bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini milliy ruhda tarbiyalash orqali ularda milliy tafakkur, milliy ong, milliy mafkura, o'zligimizga bo'lgan hurmat, milliylikimizning bugungi ko'rinishlarini saqlash va davom ettirish kabi ko'plab jarayonlarni amalga oshiramiz.

Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilari o'rtasida ijtimoiy-axloqiy kompetensiyani shakllantirishni alohida maqsad qilib qo'yimasak va bu muammoni hal etishning yangi usullarini izlamasak, an'anaviy oliy pedagogik ta'lim tizimida bu muammo samarasiz hal qilinmoqda. Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarida ijtimoiy va axloqiy kompetensiyani shakllantirish tizimini yaratish tizimli, faoliyatga asoslangan va kompetensiyaviy-aksiologik yondashuvlar asosida eng samarali bo'lib, ularning bir-birini to'ldiruvchi kompleks rivojlanishi tadqiqot muammosini qo'yish, ko'rib chiqishning adekvatligini ta'minlaydi, hodisaning mohiyatini aniqlaydi, ma'lum xususiyatlarga ega bo'lgan yangi mualliflik tizimini yaratish apparatini ta'minlaydi, ishlab chiqilgan tizimning samarali ishlashi uchun aniq protseduralarni tavsiflashga imkon beradi, tizimning ichki xususiyatlarini, tuzilishini va mazmunini taqdim etishga imkon beradi.

Ta'lim jarayonining natijasi. Nazarimizda ijtimoiy davlatni barpo etishning eng muhim omillaridan biri bu - ijtimoiy axloqni shakllantirish masalasidir. Ayrimlar bu masalada ham o'z ikkilanishlarini sezdirmoqda. Shu ma'noda biz nimani yutsak, ijtimoiy axloq tufayli yutamiz, nimani boy bersak, u ham ijtimoiy axloq normalariga bee'tiborligimiz natijasida sodir bo'ladi. Darhaqiqat, yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida

axloq, xususan, ijtimoiy axloq masalasiga jiddiy e'tibor berilishi mamlakat va millat taqdirida alohida o'rin egalashidan darakdir.

Insoniyat taraqqiyotida axloq muhim o'rin tutadi. Sharqning buyuk mutafakkirlari insonni axloqiy kamol toptirish, uni har tomonlama rivojlantirish, ma'naviy qiyofasini shakllantirish jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri, deb qarashgan. Inson axloqiy, umuman ma'naviy va ma'rifiy jihatdan kamol topishi jarayonida turli tarixiy bosqichlardan - johillik, nodonlikdan ilmga, yovuzlikdan ezgulikka, vahshiylikdan insoniylikka o'tarkan, jamiyat ham shu tariqa rivojlanadi. Ikki muqobil ibtido - yovuzlik va ezgulik, jaholat va kamolatning o'zaro kurashi inson va jamiyat taraqqiyotini belgilagan, inson aql-zakovat sohibi sifatida o'zini anglashiga olib kelgan. Bu ikki muqobil kuch kurashi jamiyatdagi mavjud ijtimoiy munosabatlarda ifodalansa, insonga nisbatan uning ichki olamiga xos nafs bilan qalb, aql bilan aqlsizlik o'rtasidagi kurashda ifodalanadi.

Axloq muayyan jamiyat va davrda o'zgarishlarga uchrashi, rivojlanishi, so'nishi mumkin. Har bir xalqning yoki millatning o'ziga xos axloqi bilan bir qatorda, umumbashariy axloq me'yorlari ham bor. Bunday axloq me'yorlari jamiyatning umumiy taraqqiyotiga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Абдуллаева Н.Ж. Бўлажак ўқитувчиларда касбий масъулиятни шакллантириш педагогик муаммо сифатида. International scientific journal volume 1 issue 8 uif-2022: 8.2 | issn: 2181-3337
2. O'roqov Sh. Ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari //Xalq ta'limi. - Toshkent: 2016, №5. -B.55-60. (13.00.00; №2).
3. O'roqov Sh. Bo'lajak kollej o'qituvchilarida kasbiy-pedagogik kompetentlikni shakllantirishning ilmiy-metodik jihatlari// SamDU ilmiy tadqiqotlar axborotnomasi. - Samarqand: 2015. 4-son. -B.132-135. (13.00.00; №6).
4. Madayev O. "O'quvchilar bilimini baholashda vaqtdan samarali foydalanish usullari". Toshkent 2007-y. - B. 51.
5. Qodirova F. Pedagogik kadrlarga ilg'or pedagogik texnologiyalar haqida. Metodika. 2014-y. - B. 23.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №7(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.